

## YOSHLAR INTELEKTINI SHAKLLANISHIDA BADIY ADABIYOTNING TA'SIRI

**Bayeshanov Abdulla**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8016127>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, chuqur bilimga ega, keng tafakkurli, sobitqadam qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rnini, undan samarali foydalanish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Intellekt, bilim, aql, tafakkur, komil inson, badiiy adabiyot.

Har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigan, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib voyaga yetishi haqida qayg'uradi.<sup>1</sup> O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu xususda shunday deydi: "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz". Bugungi globalashuv davrida kelajagimiz egalari bo'ladigan yosh avlodni vatanimiz rivojiga ta'sir ko'rsatadigan keng va chuqur ma'noli so'zlarni anglab oladigan, axborot oqimlari orqali yurtimizga kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi tura oladigan, aqlan teran, jismonan baquvvat, bag'rikenglik xususiyatlariga ega yoshlarni tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rnini beqiyos. Har bir insonning salohiyati, kuch-qudrati qanday ekanligi uning tafakkur darajasiga, bilimi, intellektual salohiyatiga bog'liq. Bu haqida ajdodlarimiz o'zlarini asarlarida bot bot takrorlaganlar.

Ma'lumki, mamlakat yuksalishi unda yashovchi xalqlar hayotini yaxshilanishini bilimli odamlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi

Нэчэ билдин эрсэ тақы бил тилэ

Билигли тэбир кор тилэккэ сора

(Қанча билсанг ҳам, яна ўрган, изла

Ўрганувчи сўраб-суриштириб, тилакка етади, кўр)<sup>2</sup>. Ulug' ajdodimizning bu yuksaklikka chorlovchi fikrlarini davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyevning ham "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"<sup>3</sup> degan so'zlari tasdiqlaydi .

<sup>1</sup> Каримова, С. (2021). Мафкурaviy хавфсизликни та'минлашнинг таркибий функционал тahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.

<sup>2</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. –Т.: Фан, 1972. 948-949 бетлар.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi(2022-y,20-dekabr)



Yusuf Xos Hojibning fikrlari insonni komillikka chorlaydi, komil insonning sifatlarida albatta ilmi bo`lish yetakchi hisoblanadi. Muallifning fikricha, yuksak ma`naviyatli insonda e`tiqod bilan birga albatta ilm va bilimdonlik yuqori darajada bo`lishi kerak. Uning fikricha ilmsiz faqat toat-ibodat bilangina yuqori darajalarga erishib bo`lmaydi. Demak, barcha ezguliklar ilmga asoslanadi. Shu yerda yana "Qutadg`u bilig" asariga murojaat qilamiz:

Билиг бил озунгэ орун қыл торэ

Билиг билэ озкэ эди бэрк тура

(Bilim o`rgan, o`zingga to`rdan joy hozirla

Bilim o`rgansang-bu o`zing uchun juda mustahkam qo`rg`ondir)

Билигсиз йурэқ тил нэкукэ йарар

Билиг бирлэ сув-тэг қамуғқа йара

(Bilimsiz yurak, til nimaga yarar edi,

Bilim bilan suvdek hamma (narsaga) yaragin.<sup>4</sup> Ushbu satrlarga diqqat qilinsa, quyidagi ma`nolar kelib chiqishi tabiiy. Din dunyoviy bilim olmaslikka chorlamaydi. Diniy va dunyoviy bilimlar bir-biri bilan uyg`unlashib, boyib ezgulikka xizmat qilishini muallif quyidagicha ifodalaydi:

Тапуғқа ынаныб қайу эрсэ кул

Булумады тэнри сэвинчинга йол

(Qaysi bir banda bo`lmasin [ya`ni hech bir banda] toat-ibodatga ishonib,

Xudoning sevinchiga yo`l topa olmagan.<sup>5</sup>

Muallifning fikricha diniy va dunyoviy ilmni bir xil o`rganib inson komillikka yetishishi mumkin. Bahouddin Naqshband bobomiz tabiri bilan aytqanda "Dil ba yor-u, dast ba kor" (diling Ollohda, qo`ling mehnatda) shioriga amal qilish lozim.

Alisher Navoiy maktab tarbiyasiga ilm-fan rivojiga Komillikka intilish masalalariga o`zining badiiy merosida katta ahamiyat bergan. Navoiyning fikrlari bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Malakatimizda ham ta`limga katta ahamiyat berilayotgan bir davrda Hazrat Navoiy o`zining uzoq yulduzidan boqib ruhiyati shod bo`layotgandek ko`rinadi go`yo. Bugungi kunimizda ham maktabgacha ta`lim, maktab va oliy ta`lim tarbiyasi ilmiy asoslarga tayanmasa kelajak avlodlarimiz ko`proq zarar ko`rishi tayin. Bu haqida ko`p yuz yilliklar oldin buyuk sharq allomalari:

Ustod-u muallim bo`lsa beozor, Bolalar xonani qilishar bozor deganida Sa`diy Sheroziy haq edi.

<sup>4</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Т.: Фан, 1972. 946-947 бетлар.

<sup>5</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Т.: Фан, 1972. 508-509 бетлар.

Turli tarixiy davrlarda yaratilgan badiiy asarlar o'z davri voqeyliklarning badiiy ifodasi bo'lishi bilan birgalikda, katta tarixiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan buyuk g'oyaviy tarbiya vositasi hamdir.

XV asrda yashagan Muiniddin Juvayniyning 1431 yil<sup>6</sup>da yozilgan, juda ko'p axloqiy hikoyat, hikmat va she'rlarni o'z ichiga olgan "Nigoriston" ana shunday asarlar jumlasiga kiradi. Muiniddin Juvayniy ushbu asarida:

*Bilim haqida:*

-Ilm saodatga yo'llovchi mash'al,

Johillik o'limga boshlar har mahal<sup>7</sup>.

-Uch toifa odam bilimsiz hisoblanadi: uch erga borsa-da, halim odamni uchratolmasa; jahl ustida shijoat ko'rsatib, jangu jadalda do'st bilan dushmani ajratmasa; hojat chiqarish paytida do'stga mol bag'ishlamay, dushmandan jonini ham ayamasa.

-Jahonda bor narsa - aqlga, aql esa tajribaga muhtojdir.

-Hakimdan "kimni donishmand desa bo'ladi?" - deb so'radilar. U javob qildi: "gapini bilib so'zlaydigan, turmushning qadriga etadigan, fazilat orttirish yo'lida erinmaydigan, martaba va mansab orqasidan tushmaydigan, tanazzul va qiyinchiliklarni tan oladigan va tamom himmatini kamolot va idrok kasb qilishga sarf qiladigan odamni donishmand atasa bo'ladi".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda, fikr tarbiyasida, bilimli va taffakur doirasini kengaytirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Klassik va zamonaviy badiiy adabiyot durdonalaridan samarali foydalanish ko'zlangan maqsadimizga erishishimizda yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Каримова, С. (2021). Мафкуравий хавфсизликни та'минлашнинг таркибий функционал тahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Т.: Фан, 1972.
3. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi(2022-у,20-декабр)
4. Машрикзамин-ҳикматлар бўстони. –Т.: Шарқ, 1997.
5. Karimova, S. (2022). МАФКУРАВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТА'МИНЛАШДА МИЛЛИЙ МЕРОСИМИЗНИНГ ОРНИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(1), 485-488.

<sup>6</sup> Машрикзамин-ҳикматлар бўстони. –Т.: Шарқ, 1997. 367 бет.

<sup>7</sup> Уша асар, 31 бет.



6. Bayeshanov, A. (2022). BADIY ADABIYOT YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA. TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 97-99.
7. Bayeshanov, A. (2021). BADIY ADABIYOT VA YOSHLAR KAMOLATI. Збірник наукових праць SCIENTIA.
8. Bayeshanov, M. (2022). Man is not created to suffer defeat. Czech Journal of Multidisciplinary Innovations, 12, 21-26.



**WOC**  
WORLD  
ONLINE  
CONFERENCES

